

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

O'zbek atamasining kelib chiqishi haqidagi turli etnogenik qarashlar

Qozoqova Ch.A

Samarqand Davlar Chet tillar instituti o'qituvchisi

Jo'raqulova Farzona Marat qizi

Samarqand Davlar Chet tillar instituti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek atamasi, uning kelib chiqishi, qo'llanilishi hamda hozirgi kundagi ahamiyati haqidagi batafsil ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Uning paydo bo'lgunga qadar davri ham chuqur va izchil o'r ganiladi. Ushbu terminning bugungi kun voqeligidagi roli hamda uning kelgusi taraqqiyoti haqidagi bir necha dalillar ham o'z o'r nida qayd etib o'tiladi.

Tayanch tushunchalar: Turkiston, Oltin O'rda, Allen J. Frank, Petter B. Golden, O'zbekxon, Rashdiddin Fazlulloh al-Hamadoniy, "Jome at-Tavorih", turkiylar, So'g'd, o'zbek etnogenizi, Movorounnahr, etnonim, O'zbekxon Sulton Muhammad, O'zbeklarning to'qson ikki urug'i, Turk xoqonligi, O'rta Osiyo, O'zbekiston.

Kirish

O'zbekiston „o'zbek” atamasi bilan bog'liq bo'lgan hozirgi hayotimizning ajralmas va muhim ahamiyatli bir qismiga aylanib ulgurgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Hammamizga ma'lum-ki, insoniyat bugungi kungacha misli ko'rilmagan tarixiy bosqichlarni, jarayonlarni hamda ko'plab sinovli vaziyatlarni boshidan kechirgan. Qadimda insonlar aralash holda ya'ni qabila bo'lib yashagan davrlarda ushbu atama mavjud bo'lмаган degan taxminlar ham yo'q emas. Bugungi davrda dunyo hamjamiyatida o'z o'rni, ahamiyati, kerak bo'lsa, yuqori darajadagi obro'siga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasi nomi bilan ham bevosita bog'liqdir. Ma'lumotlarga qaraganda, „o'zbek” etnominining paydo bo'lishi haqida aniq, yaxlit ma'lumot, tushuncha va qarashlar majvud emas, shunday bo'lsa-da, u juda katta o'ziga xos tarix va tarixiy ahamiyatga egadir.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Hozirgi makon va zamon nuqtayi nazaridan olib qaraganda ham ushbu etnomin o'z ostida juda katta xalqni ,qolaversa,buyuk tarix hamda tarixiy shaxslarning unutilmas siymolari vashu yo'lida chekkan zahmatlarini ham o'zida jamlaydi.

Asosiy qism

O'zbeklar va O'zbekiston hozirgi davrgacha juda katta darg'alardan oshishga ulgurgan qadimiy,tarixiy hamda buyuk xalq va davlatdir. O'zbeklar O'zbekiston Respublikasi xalqining asosiy qismini tashkil qiluvchi,qolaversa, O'rta Osiyoda ham eng ko'p sonli aholi ulushiga ega bo'lgan tarixiy xalq. Bundan tashqari Rossiya,Turkiya,Xitoy, AQSH, Olmoniya va O'rta Osiyoning qolgan davlatlarida ham istiqomat qiluvchi o'zbek xalqi vakillari mavjud. Qo'shimcha qilib aytganda,o'zbeklar musulmonlarning eng katta qismini tashkil qiladi va odatda ular sunniy musulmonlar deb yuritiladi. Bunga sabab esa „sunnyi-sunna” so'zidan olingan bo'lib- Islom dinidagi eng katta ikki asosiy yo'naliшhlardan biri hisoblanadi va eng ko'p tarqalgani ham aynan mana shu yo'l . O'zbek etnominining kelib chiqishi va paydo bo'lishi haqida bir necha taxmin,faraz hamda qarashlar mavjud. O'zbek so'zi ,avvalo ism sifatida foydalanilgan bo'lib, bu hodisa taxminan XII asrlarga borib taqaladi. XII asrning mashhur arab tarixshunos olimlaridan biri Usoma ibn Munqiz o'zining „Ta'lim kitobida“ Saljuqiylar davrida 1115—1116-yillardagi yo'lboshlovchilaridan biri, amir O'zbek degan Mog'ul hukmdori bo'lganligini ta'kidlab o'tadi. Bundan tashqari tarixchi Mutual Ermatov o'zbek so'zi „O'zlar“ urug'i nomidan kelib chiqqan deb taxmin ham qilgan qilgan edi. Tarixchi Rashiduddinning ham yozishiga qaraganda Tabriz viloyatida hukmronlik qilgan Eldegiziylar sulolasining eng so'nggi vakili O'zbek Muzaffar bo'lgan hamda u 1210-1215 yillar oralig'ida hukmronlik qilgan. 1221-yillarda Xorazmshoh Jalol ad-din qo'shinlarining yetakchilaridan biri ham aynan Jahon Paxlavon O'zbek Tayi edi. Shuningdek, boshqa tarixchilarning fikrlariga ko'ra, XIV asrning oltmishinchi yillarda, Dashti Qipchoq hududida „o'zbeklar” deb nomlangan ko'chmanchi turkiy qabilalarining ittifoqi tuzilgan. XIV asrning oltmishinchi yillarda „o'zbek“ etnonimi sharqiy Dashti-Qipchoqning butun turkiy aholisi uchun jamoaviy nomga aylangan edi, desak ham xato

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

bo'lmaydi. „O'zbek“ etnonimi Amir Temur davrida Movarounnahrga kirib kelgan. Buyuk shoirimiz Alisher Navoiy (1441—1501) yozgan asarlarida „o'zbek“ etnonimini Xuroson va Movarounnahrda tilga olgan.

G'arb olimlaridan hisoblanmish Allen J.Frank hamda Peter B.Golden Turkiston kengliklari hududida „o'zbek“ atamasi Oltin O'rda xoni O'zbekxondan ancha yillar oldinroq paydo bo'lган degan nazariyaga ergashsalar-da, boshqa bir guruh vakillari ya'ni P.P.Plvanov ,A.Yu.Yakubovskiy hamda X.Hukhem ushbu atamani O'zbekxon yashagan hamda taxtga o'tirgan 1283-1341-yillarga bog'laydi. Bu masalani hal qilish ya'ni, «o'zbek» atamasining paydo bo'lishiga aniqlik kiritish oson emasligi hammaga bidek ma'lum. Tarixchi olim Bo'riboy Ahmedov «Tarixdan saboqlar» asarida qayd etganidek, bu «masala shu qadar mushkul, jiddiy va nozik-ki, uni ilmiy jihatdan tahlil etish bir kishi qiladigan ish emas. Buning uchun arab, fors, xitoy va boshqa tillarda yozilgan manbalarni bemalol o'qiy oladigan tarixchi, yetuk arxeolog va antropolog, yaxshi tilshunos olim, qadimiy xalqlar haqida ularning turish-turmushi, dini, e'tiqodi va boshqa belgilariga qarab ilmiy xulosa chiqara oladigan etnograf, klassik jug'rofiya ilmini, ayniqsa, toponimikani yaxshi bilgan jug'rof, xalq og'zaki ijodini mukammal bilgan folklorchi olimlar birgalikda, boshqa yumushlarni yig'ishtirib qo'yib, ilmiy tadqiqot ishlari bilan muntazam shug'ullanishi talab qilinadi», deydi Xurshid Davron.

Bu farazlar haqidagi fikrlarga taniqli adib Tohir Malik quyidagi fikrlarni bildiradi:

“O'zbek» atamasi haqida turli fikrlar mavjud. Tarixchi olimlarimizning ta'bıricha: «o'zbek” – o'ziga-o'zi bek” degani. Yana boshqa ta'bırda o'zbek tarixini O'zbekxondan boshlashadi. Bu ikki fikrda ham mantiqiy asos yo'q. Avvalo, yer yuzida yashayotgan kattami-kichikmi har bir xalq o'ziga o'zi bek, boshqaga tobe bo'lishni istamaydi. Ikkinchidan, agar tarix O'zbekxondan boshlansa, bu xonga “O'zbek” deb kim ism bergen? Bu ism osmondan olinmagandir. Demak, bu nom, bu atama avval ham bo'lgan.

Men tarixchi emasman, olimlikka ham da'voim yo'q. Biroq, bu xususda

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

qat’iy fikrimga egaman. “Qirg’iz” – qir o’g’uzi, «Gagauz» – ko’k o’g’uz demakdir. Turkiy xalqlarning bobosi O’g’uzzxon bo’lganlar. Bu haqda qadim tarix kitoblarida yetarli ma’lumotlar bor. Ayni O’g’uzzxon davrlarida qavmlarga (oilalarga) nom berilgan: uyg’ur, qorliq, qibchoq, qang’li...(bu tarixga qiziqqanlar Mirzo Ulug’bekning “To’rt ulus tarixi” asaridan bahramand bo’lsalar durust). Bizningcha «o’zbek” – O’g’uz begi demakdir. Ya’ni O’g’uzzxon saroyiga yaqin oila shunday atalgan. Bu hol Yevropada ham bo’lgan. Masalan, Rossiyada «dvoryanin” degan tabaqa bo’lgan, ya’ni “prilijennio’y k tsarstvennomu dvoru” – podsho saroyiga yaqin bo’lgan kishi. Yana Yevropada lord, gersog, baron... kabi tabaqalar borki, barchasi hukmdorga qanchalik yaqinlikni ajratib turadi. O’g’uz beklari ham saroyga shunday yaqin bo’lganlar.

Tarixchi olimlarimiz o’zlarining Yakubovskiy, Bartolt, Bertels kabi ustozlarining aytganlarini mahkam ushlab olmasdan asl manbalarni o’rganib, tahlil qilib fikr yuritsalar durust bo’lardi. Bizning tariximizni o’rganib, kitob yozganlari uchun u zotlardan minnatdormiz. Biroq bu borada bir haqiqat mavjud: bir millat tarixini o’rganib baho berayotgan boshqa millat vakilining bayon etgan fikrida albatta o’z millati manfaati yotadi. Ana shu manfaat xolislik yo’lini to’sadi.»

O’rta Osiyo xalqlarining XIV asrning 2-yarmi XX asr boshlaridagi tarixiy taqdiri , taraqqiyot bosqichlari chor Rossiyasining mustamlakachilik davri bilan bevosita bog’liqdir.Tarixchi olim M.Vaxobovning ta’kidlashiga qaraganda, o’zbeklar millat sifatida XIV asr oxiri,XX asr boshlarida, ya’ni kapitalistik munosabatlarning mintaqaga kirib borishi bilanoq shakllana boshlagan .

XIV asrning ikkinchi yarmida o’zbek millatining shakllanish jarayoni boshlanadi, bu modernizatsiya, jadidchilik va axborot aloqalarining kuchayishi, millat haqidagi yangi g‘oyalarning paydo bo‘lishi hamda shunga o’xshash ko’plab jabhalarda namoyon bo‘la boshladi. Turkistonning islohotchi-ma’rifatchilar, jadidlar millat g‘oyasining yorqin so‘zlovchi,kuylovchilariga aylanishdi va tom ma’noda erkinlikni madh etishdi. Jadidlarning eng ko‘zga ko‘ringanlaridan,jadidlar otasi deb tan olingen zot Mahmudxo’ja Behbudiy edi. Behbudiy o’z asarlarida turkiy til atamasini o’zbek tilining sinonimi sifatida

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

ishlatgan va „o‘zbek tilida Turkiston aholisining aksariyati gapiradi“ (ya’ni asosiy so’zlashuv tili sifatida foylanadilar) deb ta’kidlagan.

Turkchilik g‘oyalari samarqandlik jadid hoji Muin Shukrullaevga (1883—1942) ham ta’sir ko‘rsatmay qolmadi, u XX asrning boshlarida o‘zini „Turkiston turki“ deb hisoblagan hamda „turkiy til“ va „o‘zbek tili“ atamalarini sinonim sifatida qo’llagan.

Keyinchalik mintaqada Sovet hokimiyatining o‘rnatalishi bilan O‘rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish o‘tkazildi va 5 ta milliy respublika tashkil etildi. Shu bilan shakllangan elatlar, taraqqiy etayotgan tarixiy makon sun’iy ravishda bo‘lib yuborildi. Mintaqaga xalqlarining assimilyatsiya, konsolidatsiya jarayonlariga ham jiddiy ta’sir o‘tkazilishi va keyinchalik „soviet xalqi“ nomli yagona etnik birlikni yaratish haqidagi nazariyani amalga oshirilishi borasidagi olib borilgan siyosat ham o‘zbeklarning milliy etnik qiyofasiga, mustahkam o‘rnatalgan mentalitetiga hech qaysi ma’noda rahna sola olmadi.

Diktator Iosif Stalin sotsialistik davlatlar millatlar sifatida burjua tuzumi homiyligida emas, balki Sovet hokimiysi homiyligida shakllangan degan fikrda bo‘lib, barcha sotsialistik millatlar hech qanday istisnosiz Sovet Ittifoqi davrida paydo bo’lgan deb hisoblar edi. XXI asrda sotsiolog Alisher Ilxamov Stalining ushbu g‘oyasini qo’llab-quvvatladi va o‘zbeklar Sovet hokimiysi davrida millat sifatida shakllanganligini ta’kidladi.

O‘zbek xalqining rivojlanish jarayoni O‘zbekiston mustaqillikka erishgan sanadan boshlab yangicha mazmun kasb eta boshladi. Tarixiy tomirlardan kuch olgan o‘zbek milliy madaniyati, tafakkuri, urf-odatlari, turmush tarzi o‘ziga xos uyg‘onish va yangilanish pallasiga qadam qo‘ydi. O‘zbeklarning moddiy va ma’naviy madaniyati o‘ziga xos va boy tarixga egadir. Uning eng yaxshi tomonlari an’anaga aylanib, hozirgacha saqlanib kelmoqda. O‘zbeklarning qadimiy ajdodlari tabiiy sharoitdan kelib chiqib sug‘orma dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik kabi o‘ziga xos xo‘jalik-madaniy tiplarni yaratganlar. Xo‘jalik-madaniy tiplarining ushbu yo‘nalishlari, o‘z navbatida, tevarak-atrofdagi tabiiy muhit bilangina emas, balki muayyan etnoslarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

darajasi bilan ham belgilanadi. O'zbeklarning ko'p qirrali dehqonchilik an'analari asrlar osha to'plangan tajribaga tayanib kelmoqda. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng, o'zining boy tarixini, yutuq,kamchilik va muammolarga to'la,barchaga birdek o'rnak bo'la oladigan, ibratli o'tmishini obyektiv asosda o'rganishga qiziqish tobora ortib bordi. Ayniqsa, inson hayoti va turmushining eng muhim jabhasi – iqtisodiyotning chigal o'tmishi, boy tarixi, mamlakat bosib o'tgan iqtisodiy tarqqiyotning bosqichlari, xususiyatlari, ziddiyatlari, diqqatga sazavor jihatlari, yutuq va kamchiliklarini chuqur tadqiq etish bugungi kunda o'ta dolzarb ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiyotning turli sabab-oqibatlarga to'la taraqqiyot yo'lini o'rganish, shunchaki, shu sohaga oid muayyan bilimlar jamlash yoki mamlakat o'tmishi haqidagi faktlar bilan dalillangan tasavvur hosil qilish uchungina emas, balki o'tmishdan saboq olish va undan bugungi kunda rivojlanishdagi taraqqiyot chorrahalarida adashmaslik, har qanday murakkab vaziyatda ham bexato va to'g'ri yo'lni tanlashda o'rinli foydalanish uchun juda zarur. Qo'shimcha qilib aytganda,o'zbek xalqi,davlati,madaniyati,urf-odatlari,dini orqali ham dunyo hamjamiyatida o'zining mustahkam pozitsiyasiga ega bo'lgan yirik ma'naviy markazlardan biriga aylangan desak adashmagan bo'lamic.

Xulosa

Yuqorida bir necha ilmiy asoslar asnosida talqin etilgan fikrlarimizga ko'ra turli xil nazariy qarashlar,ilmiy farazlar orqali havola etilayotgan ma'lumotlar ham aslida nisbiydir.Nega-ki tarix tubsiz bir quduq,yechib bo'lmas bir tilsimdir go'yo,sabab-ki ilmning poyoni yo'q.Shunga qaramasdan uni chuqur egallahga bo'lgan intilish tilimiz,millatimiz va davlatimizga bo'lgan beqiyos hurmatning bir ko'rinishi o'laroq muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan manbalar:

1. Ermatov M., Etnogenezi formirovanie predkov uzbekskogo naroda. Tashkent: Uzbekistan, 1968
- 2.Istoriia narodov Uzbekistana, III, Toshkent, 1993, 39-bet
- 3.Shoniyozov K. O'zbek xalqining shakllanish jarayoni. –Toshkent, 2001 y. 86-bet
4. Asqarov A. O'zbekiston tarixi (Eng qadimgi davrlardan eramizning V

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

asrigacha). – Toshkent, 1994 y. 123-bet

5. Shoniyo佐 K. O‘zbek xalqining shakllanish jarayoni. – Toshkent, 2001 y. 98, 313, 318-betlar

6. Ahmedov B., Tarixdan saboqlar, T, 1995.

7. „Etnicheskiy atlas Uzbekistana. Arxeologiya uzbekskoy identichnosti“

8. A HEAVILY ARMED UZBEK. SAFAVID IRAN, MID 16TH CENTURY

Behbudi Mahmudxo‘ja, Ikki emas, balki to‘rtta til kerak // Behbudi Mahmudxo‘ja, Tanlangan asarlar. Qayta ko‘rib chiqilgan va to‘ldirilgan 2-nashr. Toshkent: Manaviyat, 1999, 150-bet